

“Tasdiqlayman”

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

X.B. Yunusov

2023 yil



**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TA'LIM JARAYONLARINI TASHKIL
ETISH BO'YICHA QISQA MUDDATLI KURSNING O'QUV DASTURI**

Samarqand 2023

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil 8- oktyabrda PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 824-sonli Qarori bilan OTMlarning akademik mustaqilligini kengaytirish bo'yicha masalalar belgilandi va "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 15-yanvardagi 30-sonli buyrug'i bilan OTMlarda o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga taalluqli hujjatlar namunalari tasdiqlandi.

Kredit-modul tizimini bo'yicha amaliy tavsiyalar berish maqsadida mazkur o'quv kursida mamlakatimizning nufuzli OTMlarida kredit-modul tizimiga yondashuvlar, atamalar, kredit-modul tizimining tamoyillari, o'quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, talabalarining mustaqil ta'limni tashkil qilish, talabalar bilimni baholash, o'qishini ko'chirish, chetlashtirish va tiklash masalalari ko'rib chiqiladi. Yangi shakldagi me'yoriy-uslubiy ish hujjatlari, yangi strukturaviy birlik - Registrator ofisi faoliyati, yangi pedagogik faoliyat turlari (edvayzer, lektor vatutor) mazmuni ochib beriladi.

O'quv kursining maqsadi

Ushbu o'quv kursning maqsadi "Universitetda kredit-modul tizimini tatbiq qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda oliy ta'limning barcha ishtirokchilari - talabalar, ilmiy izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar va mutasaddi rahbarlar uchun zarur ma'lumotlar va hujjatlar shakllari taqdim qilingan.

O'quv kursining oliy ta'lim muassasalari faoliyatida tutgan o'rni

O'quv kursi universitet talabalarini, ilmiy izlanuvchilar, professor-o'qituvchilar va mutasaddi rahbarlar tomonidan tatbiq qilinadigan kredit-modul tizimining tamoyillari, o'quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, talabalarining mustaqil ta'limni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: "O'zbekiston", - 2017.- 102 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy ta'limdagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan video selektor yig'ilishi bayoni. 2021 -yil 16-iyun. (<https://president.uz/uz/lists/view/4424>)

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida". Toshkent, 2020 y., 23 sentyabr. №O'RQ-637.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 20 -apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27 -iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori;
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 dagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori

III. Maxsus adabiyotlar.

8. Usmonov B.SH., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 -y. 120-bet.
9. Reforma i razvitiye visshego obrazovaniya. YUNESKO, Parij, 1995-yil.
10. Lissabonskaya konvensiya: "O priznani kvalifikatsiy, otosyashixsya k visshemu obrazovaniyu v Yevropeyskom regione". 11.04.1997- yil.
11. Bolonskaya deklaratsiya "O Yevropeyskom regione visshego obrazovaniya". g.Bolonya, Italiya. 1999-yil.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarori, "Oliy ta'lim muassalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi NIZOM" i.

- mustaqil ishning uslubiy ta'minotini amalga oshirish;
- Registrator ofisi hujjatlari bilan ishlash;
- yozgi semestni tashkil qilishda ishtirok etish;
- lektor, tyutor, edvayzer va boshqa vazifalarda faoliyat ko'rsatish;
- o'quv rejalari va ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish tartibi bilan tanishish;
- talabning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalarda faoliyati bilan tanishish;
- mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari, tanlov fanlari katalogi, fanning o'quv-uslubiy majmuasi, talabning axborot paketi, ma'lumotnoma ko'rsatkich kabi hujjatlar bilan tanishish;
- dekanat va o'quv bo'limi hujjatlari, dars jadvallarini tuzish kabi *malaka va ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- kredit-modul tizimi tamoyillarini tadbiq qilish;
- an'anaviy ta'lim tizimini kredit-modul tizimiga moslashtirish;
- kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish;
- kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish;
- Registrator ofisi bilan ishlash;
- lektorlik, tyutorlik, edvayzerlik va boshqa pedagogik faoliyat turlarini olib borish;
- kredit-modul tizimini uslubiy jihatdan ta'minlash kabi *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

O'QUV KURSI BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	O'quv yuklamasi, soatlar taqsimoti			
		Hammasi	Nazariy	Amaliy	Mushtaqil mashg'ulot
1	Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimi. Kredit-modul tizimining muhim tamoyillari	2	2		
2	Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish	4	2		2
3	Kredit-modul tizimini raqamlashtirish bo'yicha tajribalar	2	2		
4	Kredit-modul tizimida talabning mustaqil ishi va ARM faoliyatini tashkil qilish	6	2	2	2
5	Registrator ofisi faoliyati	2	2		
6	Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati va o'zlashtirishni baholash tizimi	4	2	2	
7	Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining me'yoriy - uslubiy ta'minoti	4	2		2
	JAMI	24	14	4	6

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimi. Kredit-modul tizimining muhim tamoyillari.

Dunyo mamlakatlari oliy ta'lim tizimida kredit ta'lim tizimi. Kredit-modul tizimining O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limda mavjud elementlari.

Mustaqil ta'limning ustuvorligi. Talabaga yo'naltirilganlik. Akademik almashinuvchanlik. Modullilik. Baholashning shaffofligi.

2-mavzu. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil qilish.

Kredit-modul tizimining imkoniyatlari va muammolari. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish. Bu jarayonlarni monitoring qilish. Talaba tanlovi va shaxsiy o'quv trayektoriyasi. o'quv jarayoni me'yoriy ish hujjatlari.

3-mavzu. Kredit-modul tizimini raqamlashtirish bo'yicha tajribalar.

HEMIS tizimi imkoniyatlari. Moodle LMS tizimi imkoniyatlari.

4-mavzu. Kredit-modul tizimida talabning mustaqil ishi va ARM faoliyatini tashkil qilish.

Talabning mustaqil ishi. O'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ishi. Talabning mustaqil ta'limi. Talabning va o'qituvchining ish hajmi. Me'yorlangan va me'yorlanmagan mustaqil ish turlari. Talabning mustaqil ishini masofaviy usulda tashkil qilish. ARM faoliyatini tashkil qilish.

5-mavzu. Registrator ofisi faoliyati.

Registrator ofisining tashkiliy tuzilmasi. Registrator ofisi faoliyati. Registrator ofisi hujjatlari. Yozgi semestri tashkil qilish.

6-mavzu. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati va o'zlashtirishni baholash tizimi.

Kredit-modul tizimida akademik faoliyat turlari. Lektor, tyutor, edvayzer va boshqa subyektlarning vazifalari. O'quv rejalari, ishchi o'quv dasturi, talabning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalar. Talabning mustaqil ishini baholash. O'zlashtirishni baholash tizimi va mezonlari.

7-mavzu. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining me'yoriy-uslubiy ta'minoti.

Mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasi. Davlat ta'lim standartlari. Malaka talablari. O'quv rejalari. Tanlov fanlari katalogi. Fanning o'quv-uslubiy majmuasi. Mustaqil ishning uslubiy ta'minoti. Talabning axborot paketi. Ma'lumotnoma ko'rsatkich. Dekanat va o'quv bo'limi hujjatlari. Pedagogik yuklama. Dars jadvallari. O'qituvchining shaxsiy ish rejasini.

O'qitishda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar

O'quv kursi nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari shaklida olib boriladi. Ma'ruza darslari flipped classroom (ag'darilgan sinflar) usulida tashkil etiladi. Ya'ni, bunda ma'ruzachilar tomonidan oldindan vodcastlar (qisqa video ma'ruzalar) taqdim qilinadi va keyin savol-javoblar bo'lib o'tadi.

Amaliy mashg'ulotlar topshiriqlar berish va tinglovchilarning topshiriqlarni bajarishlarni ta'minlashga qaratilgan maslahat shaklida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida ta'limning aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyat, bahsmunozara, suhbat, muhokama, debat kabi zamonaviy ta'lim metodlardan foydalaniladi.

Mustaqil ta'lim tinglovchilarning ma'lumotlarni mustaqil o'rganish, o'z-o'zini baholash kabi shakllarda amalga oshiriladi.

tashkil qilish, talabalar bilimni baholash, o'qishini ko'chirish, chetlashtirish va tiklash masalalariga, yangi shakldagi me'yoriy -uslubiy ish hujjatlari, yangi strukturaviy birlik - Registrator ofisi faoliyati, yangi pedagogik faoliyat turlari (edvayzer, lektor va tvutor) ning mazmun-mohiyatini o'chib berishni va ularni tadbir qilishni nazarda tutadi.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

O'quv kursini o'zlashtirish orqali tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi kredit-modul tizimining tamoyillarini;
- kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni;
- kredit-modul tizimida joriy etiladigan o'quv jarayoni me'yoriy ish hujjatlarini;
- talabning mustaqil ish turlarini, o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ishini, talabning mustaqil ta'limini, me'yorlangan va me'yorlanmagan mustaqil ish turlarini, talabning mustaqil ishini masofaviy ta'lim tizimida tashkil qilishni, talabning mustaqil ishini baholashni hamda mustaqil ishning uslubiy ta'minotini;
- Registrator ofisi faoliyatini, uning tashkiliy tuzilmasini, hujjatlarini, yozgi semestri tashkil qilish tartib-qoidalarini;
- kredit-modul tizimidagi akademik faoliyat turlarini, lektor, tyutor, edvayzer va boshqa subyektlarning vazifalarini, o'quv rejaları, ishchi o'quv dasturi, talabning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalar faoliyatini;
- mutaxassislikning o'quv-uslubiy majmuasini, Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalar, tanlov fanlari katalogi, fanning o'quv-uslubiy majmuasi, talabning axborot paketi, ma'lumotnoma ko'rsatkich, dekanat va o'quv bo'limi hujjatlari, pedagogik yuklama soatlari hisobi, pedagogik yuklama topshirig'i, dars jadvallari, o'qituvchining shaxsiy ish rejasini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- kredit-modul tizimining tamoyillarini qo'llash;
- an'anaviy ta'lim tizimidagi O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tuzilmasining kredit-modul tizimiga mos jihatlari aniqlash;
- kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari aniqlash;
- kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish, me'yoriy ish hujjatlari bilan ishlash;
- o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ishini tashkil qilish;
- talabning mustaqil ta'limini tashkil qilish;
- talabning mustaqil ishini baholash;

IV. Internet saytlari

14. http://www.rusnauka.com/36_PWMN_2010/Pedagogica/7668.doc.htm
15. <https://moluch.ru/archive/40/4670/>
16. <https://lingualand.kz/blog/chto-takoe-sistema-akademicheskix-kreditov/>
17. <http://about.sfu-kras.ru/docs/8440/pdf/391627>
18. https://www.eni.kz/ru/uchebnyi-process/normativno-metodicheskie-dokumenty/pravila_organizacii_uchebnogo_processa.pdf
19. <https://www.gazeta.uz/ru/2018/07/26/education/>
20. <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-i-paradoksy-razvitiya-vysshego-obrazovaniva-v-evrope>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Tuzuvchilar: A.Elmurodov – O'quv ishlari bo'yicha prorektor.
O.Abdinabiyev – O'quv uslubiy boshqarma bosh mutaxassisi.